



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023- YIL YANVAR-IYUL (DASTLABKI MA'LUMOT)





Tel.: 65-223-80-42
www.buxstat.uz

Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyul oylarida respublika korxonalari tomonidan 17 300,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.






Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2023- yilning yanvar-iyul oylarida 8 577,1 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,8 % ni ko'rsatmoqda.



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 16 339,9 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,5 % ni tashkil etdi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 188,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,1 % ga to'g'ri keldi.



Yanvar-iyul oylarida yirik korxonalar bo'yicha (O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish




Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyul	2023-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	1 055,0	482,6	- 572,4
Gips, t.	100 678,0	445 694,0	344 443,6
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	78 055,5	116 951,0	38 895,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16 339,9 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,5 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2022- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,7 % (2,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 57,0 % (55,4 %) va quyi texnologiyasida – 40,2 % (42,4 %) kuzatildi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 47,7 % (2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 110,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 21,5 % (2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 106,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,8 % (2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 108,2 %) ni tashkil etdi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,4 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,4 % (2022- yilning yanvar-iyul oylarga nisbatan fizik hajm indeksi 128,0 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 572,7 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 5,5 % ga ko'paygan), 2 793,2 ming litr aroq mahsulotlari (6,4 % ga pasaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Mazut, ming t.	44,2	35,2	- 9,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t	3 732,0	6 217,6	2 485,6
Paxta tolasii, t	40 750,0	40 046,0	- 704,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	46 746,4	9 906,6	- 36 839,8
Paxta chigiti, t.	58 220,0	68 982,0	10 762,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,5 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 41,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,4 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 766,2 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,5 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 2 545,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 127,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 186,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,7 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,3 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 3 239,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 456,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 143,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 266,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo‘lgan xom neft va ko‘mir mahsulotlarini qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo‘lgan krekning va distillyatsiyalash yo‘li bilan neftni tozalash. Shuningdek metan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 47,7 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 8 245,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 107,9 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 141,7 mlrd. so‘m kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.



2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,5 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 69,1 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 91,4 mlrd. so‘m ekani kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 665,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-iyul oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 155,1 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	755,0	1 171,0	416,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	471,5	440,6	- 30,9



(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 107,0 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga)

*yanvar-iyul
mlrd. so'mda*



*yanvar-iyul
FHI, % da*



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 9,2 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 18,2 % ga pasayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	10 353,7	11 306,9	953,2
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	284,9	232,9	- 52,0

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln. so'm



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 3 457,1 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,1 %, uning jami sanoatdagi ulushi 20,0 % ga to'g'ri keldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



52,8 %

2023-yil
yanvar-iyul



33,7 %

2022-yil
yanvar-iyul



2023- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatida 1 825,2 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 1,6 % ga oshdi va 1 631,9 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,8 % ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 52,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 47,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 109,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 116,6 % ga to'g'ri keldi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



47,2 %

2023-yil
yanvar-iyul



66,3 %



2022-yil
yanvar-iyul




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 457,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oylari mos davriga nisbatan 106,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 20,0 % ga to'g'ri keldi.



*Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida
iste'mol tovarlarining ulushi*




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 773,9 ming so'm bo'ldi.



*yanvar-iyul
ming so'mda*





*yanvar-iyul
o'sish sur'ati, % da*



Viloyatda nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Buxoro viloyatida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmi 1 631,9 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 101,8 % ni tashkil etdi.

*yanvar-iyul
mlrd. so'mda*



*Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi*



*yanvar-iyul
o'sish sur'ati, % da*



Viloyatda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Buxoro viloyatida oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmi 1 825,2 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etdi.

*yanvar-iyul
mlrd. so'mda*



*Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi*


*yanvar-iyul
o'sish sur'ati, % da*




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 953,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,4 % ni tashkil etadigan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 36,0 % ni tashkil etgan.

*yanvar-iyul
mlrd. soʻmda*



*yanvar-iyul
ulushi, % da*




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 131 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 517 tasi yangi tashkil etilgan korxonalar sirasida kiradi.

Jami faoliyat yuritayotgan

(1-avgust holatiga ko'ra)



Jami yangi tashkil etilgan

(1-avgust holatiga ko'ra)

